

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMOV TULANBOY MA'RUFJONOVICH

**Bi-Sb-(Te, Se) ASOSIDAGI TERMOELEKTRIK QOTISHMALARNING
KOMMUTATSION MATERIALLAR BILAN KONTAKTIDAGI FIZIK-
KIMYOVIY O‘ZARO TA’SIRLASHUVINING XOSLIKLARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Azimov Tulanboy Ma'rufjonovich

Bi-Sb-(Te, Se) asosidagi termoelektrik qotishmalarning kommutatsion materiallar bilan kontaktidagi fizik-kimyoviy o'zaro tasirlashuvining xosliklari 3

Азимов Туланбой Маъруфжонович

Особенности физико-химического взаимодействия термоэлектрических сплавов на основе Bi-Sb-(Te, Se) в контакте с коммутационными материалами 23

Azimov Tulanboy Ma'rufjonovich

Features of physic-chemical interaction of thermoelectric alloys based on Bi-Sb-(Te, Se) in contact with switching materials 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMOV TULANBOY MA'RUFJONOVICH

**Bi-Sb-(Te, Se) ASOSIDAGI TERMOELEKTRIK QOTISHMALARNING
KOMMUTATSION MATERIALLAR BILAN KONTAKTIDAGI FIZIK-
KIMYOVIY O‘ZARO TA’SIRLASHUVINING XOSLIKLARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/FM850 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida hajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.fargohu.uz) va Ziyonet Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Onarkulov Karimberdi Egamberdiyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zaynabidinov Sirojiddin Zaynabidinovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor,
O'zR FA akademigi

Ayupov Kutub Saurovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "19" aprel soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel./faks: (99869) 225-10-07; (99869) 225-76-75, e-mail: niqi_info@eda.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 2-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutiining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (374 raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "03" "04" da tarqatildi.
(2025 yil "03" "04" daqi № 22 raqamli reestr bayonnomasi.)



U.I. Erkaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

A.A. Abdukarimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

N.Yu. Sharibayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ichida istiqboli bilan mashhur bo'lgan issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi vismut-surma xalkogenidlariga asoslangan termoelektrik yarimo'tkazgichli materiallarini olish texnologiyasining rivojlanishi sezilarli darajada ortmoqda. Bu sohalardagi so'nggi yutuqlardan foydalangan holda infraqizil va optik nurlanishlar manbalari va qayd qilgichlari, termoelektrik energiya o'zgartirgichlari uchun aktiv yarimo'tkazgichli termoelementlar yaratish hamda undan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan Bi-Sb-(Te, Se) asosidagi yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallarni ishlab chiqish, nikel bilan legirlangan termoelektrik materiallarni samaradorligini baholash va modellashtirish asosida energiya samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahonda past haroratli termo'zgartirgichlar va sovutuvchi termoelektrik batareyalar uchun istiqbolli ishchi materiallar sifatida vismut va surma xalkogenidlari asosidagi yarimo'tkazgichlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda Bi va Sb xalkogenidlari asosidagi yarimo'tkazgichlarning xususiyatlari o'rganilib, ular asosida termo'zgartirgichlar yaratish va yarimo'tkazgichli asboblarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, BiSb va PbSb yarimo'tkazgichlar yordamida termoelektrik materiallar bilan kommutatsiya kontaktlari sohasidagi diffuziya jarayonlarini aniqlash, termoelektrik materiallarning kontaktlashuvchi yuzalarini nikel bilan metallashtirish orqali diffuziya koeffitsiyentlarini kamaytirish imkoniyatlarini tahlil qilish va termoelementlarning energiya samaradorligini aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish va samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish hamda ularni amalda qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish" bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga

qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida¹gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlarining III. “Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyodagi nufuzli ilmiy markazlar va universitetlar yuqori ishchi parametrlarga ega bo‘lgan yarimo‘tkazgichli termoelektrik generatorlar yaratish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar bilan shug‘ullanmoqda. Misol uchun, Maks Plank nomidagi kimyoviy energiya muammolari va Materialshunoslik institutlarida (Dennis Groeneveld, Jan D.Koenig, Jürgen Wöllenstein Michael Poschmann - Germaniya) vismut va surma tellurididan n- va p-tipli yarimo‘tkazgichli termoelektrik materiallar olish va ularning strukturasi o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, Nagoya texnologiya instituti, Ilg‘or texnologiyalar va sanoat fanlari milliy institutlarida (Takuya Fujimoto, Masashi Mikami, Hidetoshi Miyazaki, Yoichi Nishino - Yaponiya) yarimo‘tkazgichli termoelektrik materiallarga turli atomlar diffuziyasi, Davell Shadds universiteti, Kolorado Yer boyliklari institutida (Zheng Ju, Susan M.Kauzlarich, Caitlin Crawford, Jesse Adamczyk, Eric S.Toberer - AQSh), $\text{Bi}_2\text{Te}_3/\text{Sb}_2\text{Te}_3$ geteroo‘tishli nanostrukturalarning termoelektrik xususiyatlarini o‘rganish, Shanxay mikrostruktura va informasion texnologiyalar instituti va Materialshunoslik va optoelektronika Markazlarida (Weixiong Huang, Ting Li, Yi Zou, Chaoqun Qi, Guangce Zheng, Haoyu Wang, Minfan Fu, Qun Lin, Shucheng Yang, Bicong Weng, Jie Ren, Heyuan Li, Haoyu Wang, Junrui Liang, Minfan Fu - Xitoy) Sb-Te asosida materiallar sintez qilish va ularga nodir yer elementlarini kiritish orqali elektron xotira elementlarini yaratish, Moskva po‘lat va qotishmalari institutida (MISIS) (Vadim S.Zolotorevsky, Nikolai A.Belov, Michael V.Glazoff - Rossiya) yangi materiallar va texnologiyalarni ishlab chiqish, xossalarini va qo‘llanilishini tadqiq qilish, Ozarbayjon neft va sanoat davlat universitetida (Ziya S Aliev, Mahammad B.Babanly, Imamaddin R.Amiraslanov, G.R.Gurbanov, M.B.Adygezalova - Ozarbayjon) $\text{GeSb}_2\text{Te}_4\text{-SnSb}_2\text{Te}_4$ tipidagi yarimo‘tkazgich qattiq qotishmalar olish va strukturaviy, elektrofizik xususiyatlarini tadqiq qilishgan ba 6.

Qator mualliflar, jumladan o‘zbek olimlaridan akademiklar R.A.Mo‘munov, S.Zaynalobiddinov, A.T.Mamadolimovlar (yarim o‘tkazgichlarda diffuziya jarayonlari), professorlar G.Abduraxmanov (o‘tish guruhi metallari oksidlari bilan legirlangan silikat va ligaturalarning tarkibi va strukturasi asosiy termoelektrik xossalariga ta‘sirini eksperimental va nazariy o‘rganishlar), S.H.Shomirzaey, A.B.Karimov (vismut va surma telluridining presslangan va polikristall

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son qarori

tuzilmalarida termo va tenzoelektrik effektlarni o'rganish), R.Ya.Rasulov (termoelementlarning nomuvozanatli sovutish jarayonlarining kontakt sohasidagi haroratli noturg'unligini nazariy tahlillari), A.M.Kasimaxunova (yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallar asosida termoelementlar tayyorlash va ularni qo'llanishi), K.E.Onarkulov (turli kirishmalarning yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallar xossalari ta'sirini o'rganish), M.B.Nabiyev (termoelektrik materiallardan TEG yaratish va qo'llash), Ya.U.Usmanov (yarimo'tkazgich qotishmalar olish texnologiyasini takomillashtirish) va boshqalar yuqori samarali termoelektrik generatorlarni yaratish uchun kimyoviy bir jinsli va termoelektrik samaradorligi yuqori bo'lgan yarimo'tkazgich qotishmalar olishning prinsipial imkoniyatlarini ko'rsatmoqdalar.

Mazkur tadqiqotlar natijasida Bi va Sb xalkogenidlari asosidagi yarimo'tkazgich materiallari asosida termoo'zgartirgichlar yaratish bo'yicha erishilgan bo'lsada, ushbu materiallarning optimal parametrlarini asoslash va yanada samarali hamda mustahkam tarkibli yangi kontakt materiallarni izlash, ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida, jumladan 2012-2014 yillardagi ITD-12-56 «Yarimo'tkazgichlardan termoelektrik materiallar tayyorlash» ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi vismut va surma xalkogenidlari asosida termoelektrik materiallarning samaradorligini oshirish, kontakt sohasidagi diffuziya jarayonlarini o'rganish orqali samarali kommutatsiya o'tishlarini yaratish hamda yarimo'tkazgichli termoelementlar olish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Bi-Sb-(Te, Se) asosidagi yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallarni olish texnologiyasini takomillashtirish;

nikel bilan legirlangan termoelektrik materiallarni elektrofizik xususiyatlaridan kelib chiqib termoelektrik samaradorligini baholash;

termoelektrik materiallarning kontaktlashuvchi yuzalarini nikel bilan metallashtirish orqali diffuziya koeffitsiyentlarini kamaytirish imkoniyatlarini tahlil qilish;

PbSb evtetikasi bilan kommutatsiyalangan va Ni kirishmasi bilan legirlangan termoelektrik materiallarning mexanik, hamda elektr xossalari tadqiqot natijalari asosida samarali ishlaydigan termoelektrik batareyalarni yaratish imkoniyatlarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida yarimo'tkazgichli Bi-Sb-(Te,Se) yarimo'tkazgich materiallari, pripoy va Bi-Sb va Pb-Sb asosidagi evtetiklar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti BiSb-(Te,Se) asosidagi yarimo'tkazgichli materiallarning termoelektrik va mexanik xossalari, Bi – Sb va Pb- Sb evtetiklar va

pripoyning yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallar va kommutatsiya shinalari bilan o'zaro ta'sirlashuvi va ular asosida tajriba namunalarini yaratish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida BiSb-(Te,Se) asosida yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallar olish metodi, termoelektrik parametrlarni o'lchash uchun jamlanma va solishtirma qarshilikni o'lchashda to'rt zond metodi va standart o'lchov asboblardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, Bi-Sb-(Te,Se) asosidagi yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallarni Ni bilan ligirlash orqali yangi elektrofizik xususiyatlarga ega bo'lgan termoelement materiallarni yaratish texnologiyasi takomillashtirilgan;

BiSb va PbSb evtektiklari va pripoy yordamida termoelektrik materiallar bilan kommutatsiya kontaktlaridagi diffuziya jarayonlari kamaytirish va samaradorlikni oshirishini aniqlovchi model ishlab chiqilgan;

termoelektrik materiallarning diffuziya koeffitsiyentlarini kamaytirish va kontaktlashuvchi yuzalarini metallashtirish orqali termoelementlarning elektrofizik samaradorligini oshishi aniqlangan;

kommutatsiya kontaktlaridagi diffuziya jarayonlarini kamaytirish hamda kontaktlashuvchi yuzalarini metallashtirish orqali yuqori samaradorlikka ega bo'lgan yangi termoelektrik batareyalarning ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ixcham termoo'zgartirgichlarni tayyorlashda yarimo'tkazgich materiallarning nisbiy sarfini kamaytirish va nosozlari foizlarini pasaytirish imkoniyatlari aniqlangan;

past temperaturali termoo'zgartirgichlarda PbSb evtektik materiali orqali kommutatsiya o'tishlarini ta'minlash imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy yuqori aniqlikdagi qurilma va uskunalardan, zamonaviy va ilmiy tasdiqlangan tadqiqot usullaridan, o'lchash va ma'lumotlarni qayta ishlashning me'yoriy, tasdiqlangan kompleks usullaridan foydalanilganligi, shuningdek, olingan natijalarning yarimo'tkazgichlar fizikasi va texnikasining zamonaviy tushunchalari va nazariy asoslari bilan mos kelishi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nikel bilan legirlangan $Bi_2Te_{2,88}Se_{0,12}$ va $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3$ yarimo'tkazgichli materiallarining termoelektrik va mexanik xossalarni xosliklarini, $77 \div 300$ K haroratlar oralig'ida $p - Bi_2Te_3 + Ni$ namunalari uchun zaryad tashuvchilar sochilish mexanizmini, Bi-Sb, PbSb evtektiklarini termoelektrik materiallar va kommutatsiya shinalari bilan o'zaro ta'sirlashuvini o'rnatishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan yarimo'tkazgichli materialdan ixcham termoo'zgartirgichlar tayyorlashda foydalanish va ularni keyingi turli rejimlarda ekspluatatsiya qilishda nosozlari foizlarini pasaytirish va natijada yarimo'tkazgich materiallarning nisbiy sarfini kamaytirish imkoniyati beradi, kimyoviy usul bilan o'tqazilgan antidiffuzion qoplamali $Pb - Sb$ evtektikdan kommutatsiya o'tishlarini ta'minlashdan sovituvchi

qurilmalar, shuningdek 423 K haroratda ishlaydigan past haroratli termoo'zgartirgichlarda ham foydalanish mumkin. Bunda termoelementlarning kontakt sohalarida kimyoviy o'zaro ta'sirlashuv yo'qotiladi, issiqlik va elektr yo'qotishlari kam, mexanik jihatdan mustahkam kontakt bo'lishi ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. BiSb-(Te, Se) asosidagi termoelektrik qotishmalarning kommutatsiya materiallari bilan kontaktidagi fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirlari xosliklarini tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy–amaliy natijalar asosida:

p-tipdagi $\text{Bi}_2\text{Te}_3\text{-Sb}_2\text{Te}_3$ asosga ochiq tigelda kirishmalar kiritilganda uning termoelektrik xususiyatlarining barqarorligini ta'minlab, yarimo'tkazgich materiallarining termoelektrik xususiyatlarini takror hosil qilish imkonini berishi ko'rsatilgan. (O'zbekiston respublikasi intellektual mulk agentligining 2019 yil 6 avgustdagi № IAP 05968 raqamli patenti). Natijada, materialning barqarorligi, iqtisodiy energiya samaradorligi oshirilgan.

$\text{Bi}_2\text{Te}_{2,88}\text{Se}_{0,12}$ va $\text{Bi}_{0,5}\text{Sb}_{1,5}\text{Te}_3$ asosida nikel bilan legirlangan termoelektrik samaradorlik qiymatlarini saqlagan, mustahkamlik darajasi yuqori bo'lgan termoelektrik materiallar olingani; kontaktlashish yuzalariga nikelning kimyoviy usulda qoplanishi *BiSb* va *PbSb* evtetiklari bilan ishonchli aralashuvchanlikni ta'minlashi; *PbSb* va *BiSb* optimal qorishma evtetiklarining termoelektrik materiallar bilan kontaktlashish diffuziya koeffitsiyentlari va energiya aktivasiyalari aniqlangan. (Andijon davlat universitetining 2024 yil 11 dekabrda №04-2791 sonli ma'lumotnomasi). Natijada bir jinsli strukturali kirishma-nuqsonli kristallar olish imkonini oshirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 9 ta xalqaro va 6 ta Respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish e'lon qilingan, ulardan 5 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jumladan 2 ta maqola xorijiy xalqaro scopus bazasidagi konferensiyalarda chop etilgan. p-tipdagi yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallar olish usulga 1 ta patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 34 ta rasm, 11 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati ifodalangan, maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ilmiy va

amaliy ahamiyati ochib berilgan, ish natijalarining qo‘llanilganligi haqida, hamda dissertatsiya ishining tuzilishi bo‘yicha qisqacha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bi-Sb-(Te, Se) asosidagi materiallarning yarimo‘tkazgich xossalari, ularni kommutatsiya qilish usullari va kommutatsiya materiallari**» nomli birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid adabiyotlarning sharhi keltirilgan.

Termoelektrik sovitgichlar an‘anaviy sovutish tizimlariga nisbatan juda ko‘p afzalliklarga ega. Termoelektrik qurilmalar energiya ishlab chiqarishning muhim manbai sifatida ham ishlatilishi mumkin, bunda isrof bo‘layotgan issiqlik energiyasi foydali elektr energiyasiga aylantirilishi mumkin. Ushbu xususiyatlari va keng ko‘lamli qo‘llanilishiga qaramasdan, termoelektrik qurilmalardan foydalanish cheklangan. Tan olinmayotganligining asosiy sababi shundaki, biz haligacha hozirgi avlod elektronikasi uchun zarur bo‘lgan sovutish samaradorligi va solishtirma quvvatga erisha olmayapmiz.

Yarimo‘tkazgichli materiallar ichida Bi_2Te_3 , Sb_2Te_3 va ular asosidagi qattiq qotishmalar 200÷600 K oralig‘ida eng yaxshi termoelektrik xossalarga ega.

n-tipli materiallar orasida tarkibi 4÷10 mol % miqdorida galogenidlar bilan legirlangan $Bi_2Te_3 - Bi_2Se_3$ asosidagi qattiq qotishmalar eng yuqori samaradorlikka ega. Bu materiallarda xona haroratsida eng yuqori termoelektrik samaradorlik ta‘minlanadi va $(2,9 \div 3,0) 10^{-3} 1/K$ ni tashkil etadi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish asosida dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari shakllantirilib, yangi kommutatsiya materiallarini yaratish bo‘yicha tadqiqot yo‘nalishlari hamda vismut va surma xalkogenidlari asosida sovutish termoelementlarini kommutatsiya variantlari tanlangan.

Dissertatsiyaning “**Tajriba namunalarini olish texnologiyasi va ularni tadqiqot usullari**” nomli ikkinchi bobida vismut va surma xalkogenidlari asosida termoelektrik materiallarni olish, kommutatsion priпой va evtektiklar, tajriba namunalarini tayyorlash va asosiy parametrlarni o‘lchash usullari va qurilmalari tavsiflangan.

n – va p – tipli materiallarning mustahkamlik xususiyatlariga Ni qo‘shilishining ta‘sirini o‘rganish uchun tajriba namunalarini tayyorlandi. n – tipli $Bi_2Te_{2,88}Se_{0,12}$ kompozision materialga legirlovchi sifatida Ni (0,01÷0,06) massa % va $SbCl_3$ (0,04 ÷ 0,07) massa % ishlatilgan. p – tipdagi $Sb_{1,5}Bi_{0,5}Te_3$ tarkibiga ega termoelektrik materialga +3 massa % Te, (0,01÷0,06) massa % Ni kiritilgan .

Kontaktga yaqin sohalarda kechadigan jarayonlarni o‘rganish uchun kavsharlash usulida tajriba namunalarini tayyorlangan. Yarimo‘tkazgichli materiallar elektriskrali kesish stanokida 6 ÷ 7 mm li quymalardan 7 mm balandlikdagi silindrlarga kesilgan. Mis shinalar ham diamerti 6 ÷ 7 mm va balandligi 3 mm bo‘lgan shaklga ega edi.


$Bi_2Te_3 - Bi_2Se_3$ va $Sb_2Te_3 - Bi_2Te_3$ qattiq qotishmalar asosida termoelektrik materiallarning elektr o‘tkazuvchanligi, termoeuyuk va issiqlik o‘tkazuvchanligi haroratga bog‘liqligini o‘rganishda prinsipial sxemasi 1-rasmda keltirilgan qurilma ishlatilgan.

Bitta isitgich yordamida namunada harorat gradiyenti yuzaga kelishida zondlar orasidagi potentsiallar farqini o‘lchashga asoslanib $\alpha = \frac{E}{\Delta T_4}$ bo‘yicha termoeuyuk

koeffitsiyenti hisoblangan, bu yerda $\Delta T_4 = T_4 - T_5$ - zondlar orasidagi harorat farqi, E-ular o'rtasidagi EYUK. Namunadan elektr toki o'tkazilganda, elektr o'tkazuvchanligi $\sigma = \frac{I l}{U \cdot S}$ formulasi yordamida shtiftlar orasidagi kuchlanish pasayishidan hisoblab topilgan.


Mavjud universal sinov mashinalari odatda ma'lum profil va o'lchamlardagi qirralari qalinlashgan namunalardan foydalanadilar. Bi_2Te_3 , Sb_2Te_3 turdagi birikmalar juda mo'rt va namunalarga kesish elektruchqunli usulda amalga oshirilganligi sababli, murakkab konfiguratsiyaga ega bo'lgan namunalarni deyarli tayyorlab bo'lmaydi. Shu sababli, to'g'ri burchakli kesimga ega namunalarni siqish va cho'zish sinovlarini o'tkazish imkonini beruvchi uskuna ishlab chiqilgan va yasalgan.

Dissertatsiyaning **“Yarimo'tkazgichli materiallarning termoelektrik xossalarini tadqiq etish va kommutatsion materiallar bilan kontaktdagi fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirlashuvini o'rganish”** nomli uchinchi bobida mis va nikel bilan legirlangan $Bi_2Te_{2,88}Se_{0,12}$ va $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3$ qattiq qotishmalar asosidagi termoelektrik, mexanik va galvanomagnit xossalari, kontaktda yaqin sohalarda ro'y beradigan kommutatsiya materiallari va diffuziya jarayonlarining xossalari va termoelementlarning kommutatsiya imkoniyatlari o'rganilgan.



2-rasm. $Bi_2Te_{2,88}Se_{0,12}$ materialining siqilishida termoeuyuk, elektr o'tkazuvchanlik va materialning mustahkamlik chegarasining Ni kirishmaga bog'liqliklari (\circ - σ , Δ - α , \bullet - δ).

Ni tarkibi ortgan sari materialning termo EYUKning pasayishi kuzatiladi. Bunda termoeuyuk qiymati $170 \div 180 \cdot 10^{-6}$ V bo'lgan namunalar siqilganda mexanik




1-rasm. $300 \div 900$ K temperatura α, σ, χ ni o'lchash qurilmasining prinsipial sxemasi. 1 – tekislovchi ekran; 2 – steatit prokladkalar; 3 – yuqori va pastki pechkalar; 4 – tadqiq etilayotgan namuna; T_1, T_2, T_3, T_4, T_5 – termoparalar va zondlar.

$Bi_2Te_{2,88}Se_{0,12}$ va $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3$ qattiq qotishmalarni nikel bilan legirlashda, ular mustahkomlovchi ta'sirga ega ekanligi, ammo misdan farqli ravishda akseptorli ekanligi o'rnatilgan. Kompensatsiyalovchi donor kiritmalarining miqdorini mos ravishda orttirmasdan, faqat Ni tarkibining ortishi qotishma mustahkamligining yanada ortishiga olib keladi, ammo, bunda termoeuyuk keskin kamayadi (2-rasm).

Massasi 0,5 % kiritma kiritilganda materialning maksimal termo EYUK koeffitsiyentiga erishiladi. Mexanik regeneratsiyaning ortishi bilan birgalikda


mustahkamlik chegarasi δ 3,4 dan 4,2 kG/mm² gacha o'zgaradi, bu esa mos ravishda δ Bi₂Te_{2,88}Se_{0,12} ga nisbatan 1,5 ÷ 2 marotaba yuqoridir.

3.a-rasmda nikel bilan legirlanmagan Sb_{1,5}Bi_{0,5}Te₃+3 massa % Te 3.b-rasmda 0,05 % Ni bilan legirlangan Sb_{1,5}Bi_{0,5}Te₃+3 massa % Te qattiq qotishmaning, haroratga bog'liqligi keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, nikel bilan legirlanganda p –tipli materialning termoelektrik xossalari sezilarli o'zgarishlar ro'y bermaydi.



3-rasm. Sb_{1,5}Bi_{0,5}Te₃ + 3 massa % Te (a), Sb_{1,5}Bi_{0,5}Te₃ + 3%Te, 0,5% Ni (b) tarkibdagi qattiq qotishmalarning haroratga bog'liqligi (○ – σ , Δ – α , □ – χ , ■ – Z)

Zaryad tashuvchilarining sochilishi va Bi₂Te₃ + 0,04 massa % Ni qotishmaning zonali strukturasi modelini sifatli o'rnatilishini aniqlash maqsadida 77 ÷ 300 K harorat oralig'idagi termoelektrik doimiy magnit maydonidagi o'zgarishlari tadqiq etilgan (4-rasm).



4-rasm. Bi₂Te₃+0,04 Ni massa% qotishma uchun termoelektrik koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi.

uchun sochilish parametri.

T > 180 K haroratlarda α qiymatlarining tezroq o'sishi kuzatiladi, (1) formuladan ko'rinib turibdiki bu jarayon T = 250 ÷ 260 K gacha davom etadi, bundan so'ng to'yinish sodir bo'ladi va so'ngra α qiymati pasayadi. α ning bu hatti-harakati tadqiq etilayotgan qotishmada Bi₂Te₃ ga xos bo'lgan murakkab valent zonaning mavjudligi bilan talqin etiladi. T < 200 K past haroratlarda

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, T < 180 K haroratlarda termoelektrik (α) haroratga proporsional o'zgaradi, bu esa elektron gazning aynigan holatiga mos keladi va quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\alpha = \frac{2\pi^3 k_0^2 m^* T}{3^3 e \hbar^2 p^3} \left(r + \frac{3}{2} \right) \quad (1)$$

bu yerda k_0 - Bolsman doimiysi, m^* - holatlar zichligining samarali massasi, e - elektron zaryadi, \hbar - Plank doimiysi, p - zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi, $(r + 3/2)$ - akustik sochilish mexanizmi

o'tkazuvchanlik jarayonlarida asosan birinchi zona osti, ya'ni holatlar zichligining samarali massasi kamroq va Xoll harakatchanligi R_x yuqoriroq bo'lgan "yengil" kovaklar zona ostlari ishtirok etadi. Harorat ortishi bilan ba'zi "yengil" kovaklar ikkinchi zona ostiga, holatlar zichligining samarali massasi yuqori va harakatchanligi kichik bo'lgan zonaga o'tadi. Bunda umumiy termoeuyuk quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_u = \frac{\alpha_1 \sigma_1 - \alpha_2 \sigma_2}{\sigma_1 + \sigma_2} \quad (2)$$

bu yerda $\alpha_1 = \frac{2\pi^{2/3} k_0^2 m^* T}{3^{5/3} e h^2 p^{2/3}} (r + 3/2)$ (3)

$$\alpha_2 = \frac{k_0}{e} \left[r + 5/2 + \ln \frac{2(2\pi m^* K_0 T)^{3/2}}{h^3 p} \right] \quad (4)$$

$$\sigma_1 = 2e \left(\frac{2\pi m_0 k_0 T}{h^2} \right)^{3/2} F_0(\mu^*) U_1 \left(\frac{m_1^*}{m_0} \right)^{3/2} \quad (5)$$

$$\sigma_2 = 2e \left(\frac{2\pi m_0 k_0 T}{h^2} \right)^{3/2} F_0(\mu^* - \Delta\varepsilon) U_2 \left(\frac{m_2^*}{m_0} \right)^{3/2} \quad (6)$$


bu yerda $\alpha_1, \alpha_2, \sigma_1, \sigma_2$, mos ravishda birinchi va ikkinchi zona ostilarning termoeuyuk va elektr o'tkazuvchanliklari, μ^* - keltirilgan Fermi sathi, $\Delta\varepsilon$ - energetik tirqish kattaligi, $F_0 = \int_0^\infty x^r \frac{1}{e^{x+1}} dx$.

O'tkazuvchanlik jarayonlarida ikkinchi zona ostining "og'ir" kovaklarining ishtiroki ma'lum haroratlarda birinchi zona osti α zaryad tashuvchilariga nisbatan α_u umumiy temroeyuk qiymatining ortishiga olib keladi. Umumiy termoeuyukning bunday harakati ikkinchi belgining zaryad tashuvchilari, ya'ni elektronlar ishtirok etadigan haroratlarga erishguncha, ya'ni α_u qiymatiga ta'sir qila boshlaguncha davom etadi. Bunda umumiy termoeuyuk quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_u = \frac{\sum \alpha_p \sigma_p - \alpha_n \sigma_n}{\sum (\sigma_p + \sigma_n)} \quad (7)$$

bu yerda α_n, σ_n mos ravishda o'tkazuvchanlik zonasi termo EYUK va elektronlarning elektr o'tkazuvchanliklari.

O'tkazuvchanlik jarayonida elektronlarning ishtirokining namoyon bo'lishi



5-rasm. $Bi_2Te_3 + 0,04$ massa % Ni qotishma uchun Xoll koeffitsiyentining haroratga bog'liqligi.

temroeyuk ortishining sekinlashishiga, keyin esa to'yinishga va harorat yanada ortishi bilan uning qiymatining pasayishiga olib keladi. Termoeuyuk qiymatining pasayishiga yana tadqiqot haroratsining hususiy o'tkazuvchanlik sohasiga yaqinlashishi ham sezirli ta'sir ko'rsatadi, bu esa temroeyuk qiymatining eksponensial pasayishiga olib keladi.

Shuningdek, zaryad tashuvchilarning Xoll harakatchanligi va Xoll koeffitsiyenti hisoblangan. Tadqiq etilayotgan materialning valent zona

tuzilishining nostandart tuzilishining tabiati Xoll koeffitsiyentining haroratga bog'liqligi bilan ham tasdiqlanadi (5-rasm).

Ma'lum-ki, $Bi_2Te_3, Sb_2Te_3, PbTe$ va x.z. murakkab zona tuzilmasiga ega bo'lgan moddalar uchun (bir xil belgiga ega ikki turdagi zaryad tashuvchilar mavjud bo'lganda) Xoll koeffitsiyenti sferik zonalar tahminida va kovaklarning bir xil sochilish mexanizmidagi quyidagicha aniqlanadi

$$R = \frac{A}{peCo} \frac{p_1\mu_1^2 + p_2\mu_2^2}{p_1\mu_1 + p_2\mu_2} \quad (8)$$

bu yerda A – kovaklarning sochilish mexanizmini aniqlovchi koeffitsiyent, $p_1\mu_1$ va $p_2\mu_2$ mos ravishda zona ostilardagi zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi va harakatchanligi.

Past haroratda ($T < 100$ K) zona ostilardagi kovaklarning natijaviy konsentratsiyasini $p = p_1 + p_2$ deb hisoblash mumkin, u holda

$$R = R_0 \frac{(1+p_2/p_1)[1+(p_2/p_1)b^2]}{[1+(p_2/p_1)b]^2} \quad (9)$$

bu yerda $R_0 = \frac{A}{peCo} \cong \frac{A}{p_1eCo}$, $b = \frac{\mu_c}{\mu}$.

Yetarli darajadagi ishonch bilan biz "b"ning haroratga kuchsiz bog'liqligini taxmin qilishimiz mumkin va bunda

$$R \approx R_0(p_2/p_1) \quad (10)$$

ikkinchi zona ostida kovaklarning ortishi va birinчисida kamayishi natijasida haroratning ortishi R_x ning ham ortishiga olib keladi.

Zona ostilarning elektr o'tkazuvchanliklari teng bo'lganda σ_1, σ_2 Xoll koeffitsiyenti maksimal qiymatiga yetadi va bunda

$$R_{max} = R_0 \frac{(1+b^I)^2}{4b^I} \quad (11)$$

Maksimal qiymatiga yetgach, R_x kattalik boshqa kinetik koeffitsiyentlar kabi asosan ikkinchi zona osti zaryad tashuvchilari yordamida aniqlanadi va ularning konsentratsiyasining ortishi $R_x = \frac{A}{peC}$ ifodaga mos ravishda R_x qiymatining kamayishiga olib keladi.

Ta'kidlab o'tamiz, murakkab zonali tuzilishga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli materiallar uchun maksimal R_x ga erishiladigan haroratda R_x va α_u , parametrlarning kombinatsiyasi bilan ba'zi zona parametrlarini aniqlash mumkin, masalan $\frac{\mu_n}{\mu_p}, \frac{p_n}{p_p}$ va ΔE .

Zaryad tashuvchilarning harakatchanligi uchun ikki zonali valent zona struktura modeli uchun nazariya quyidagi ifodani beradi:

$$\mu = \frac{\mu_1 p_1 + \mu_2 p_2}{p_1 + p_2} \quad (12)$$


bu yerda μ_1, μ_2 - mos zona ostilardagi kovaklarning harakatchanligi, p_1, p_2 esa - konsentratsiya.

Ma'lumki, umumiy holda, zaryad tashuvchilarning harakatchanligi

$$\mu = \frac{\sqrt{\pi}}{2\Gamma(r+3/2)} \frac{\Gamma(r+3/2)}{\Gamma(3/2)} \mu_0 \quad (13)$$

$$\mu_0 = \frac{2e}{3m^*} \tau_0 (k_0 T)^2 \left(r + \frac{3}{2}\right) \quad (14)$$

bu yerda $\Gamma(s) = \int_0^{\infty} x^{s-1} e^{-x} dx$ - gamma-funksiya.



6-rasm. $Bi_2Te_3 + 0,04$ massa % Ni qotishma uchun magnit maydonidagi solishtirma qarshilikning o'zgarishining haroratga bog'liqligi.

harakatchanlikni to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usullaridan biri magnit maydonidagi qarshilikni o'zgartirish ta'siridan foydalanishdir. O'zgarishning haroratga bog'liqligi 6-rasmda keltirilgan. Magnit maydonidagi solishtirma qarshilikning o'zgarishi harakatchanlik, magnit maydoni (kuchlanganlik) va zaryad tashuvchilarning aynigan darajasining funksiyasi hisoblanadi:

$$\rho_{(H)} = \rho_{(0)} \left[1 + \left(\frac{\mu H}{c} \right)^2 A \right] \quad (15)$$

bu yerda

$$A = \frac{(F_{3/2} \mu^*)^2}{F_{2+1}^4} \left[f_{r+1}(\mu^*) f_{3r+1}(\mu^*) - f_{2r+1/2}^2(\mu^*) \right] \quad (16)$$

bu yerda $f(H) = f(0)[i + z + i]$.

Degenerativ bo'lmagan yarimo'tkazgichlar uchun (ikkinchi zona osti uchun)

$$A = b_2 - a_r^2 \quad (17)$$

bu yerda

$$a_r = \frac{3\sqrt{\pi}}{4} - \frac{F_2(r+3/2)}{F^2(r+2)} \quad (18)$$

va

$$b = \frac{9}{16} \pi \frac{F_{(3r+1)}}{F_{(r+2)}^3} \quad (19)$$

Zaryad tashuvchilarning elektron spektrining degeneratsiyasi kuchli yoki kuchsiz bo'lsa (birinchi zona osti va ikkala zona ostilarning ta'siri doirasida)

$$A = \frac{\pi^2}{3} \left(\frac{1}{\mu} \right)^2 \left(r - \frac{1}{2} \right) \quad (20)$$

Agar tadqiq etilayotgan tarkib uchun past harorat sohasida zaryad tashuvchilarning tarqalishi akustik tebranishlarda sodir bo'ladi deb faraz qilsak (18-20) ifodalarda Bi_2Te_3 holatida $r=0$, zaryad tashuvchilarning degenratsiyalanmagan holati uchun $a = \frac{9}{10} \pi$, $b = \frac{\Gamma_* 1}{\Gamma^3 2} - \frac{9\pi^2}{64}$, kuchsiz va nisbatan kuchli degenyerativ holat uchun $A = \frac{\pi^2}{3} \frac{1}{4} \left(\frac{1}{\mu^*} \right)^2$. Birinchi zona osti uchun magnit maydondagi qarshiligini o'lchash

(14) ifodadan ko'rinib turibdi-ki, tok tashuvchilarning harakatchanligi elektron gazining aynigan darajasiga, holatlar zichligining samarali massasiga, sochilish mexanizmiga va haroratga bog'liq. Shuning uchun uni Xoll effekti, elektr o'tkazuvchanligi va termoeyuk o'lchovlari bo'yicha hisoblash $\frac{m_*}{m_0}$, r va x.z. aniqlash qiyinligiga sabab bo'ladi.


Yuqorida keltirilgan parametrlarni aniqlamasdan turib

$$\frac{\Delta\rho}{\rho} = \frac{\mu H^2 \pi^2}{c} \frac{1}{12 \mu^{*2}} \quad (21)$$

va ikkinchi zona ostining ustunlik harakati uchun

$$\frac{\Delta\rho}{\rho} = \frac{\mu H^2}{c} B \quad (22)$$

Shunday qilib, $\frac{\Delta\rho}{\rho}$ uchun formuladan ko‘rinib turibdiki, qarshilikning o‘zgarishi zaryad tashuvchilarning harakatchanligining haroratga bog‘liqligi bilan aniqlanadi. Valent zonasi tuzilishining ikki zonali modelini hisobga olgan holda, $80 \div 150$ K harorat oralig‘ida $\frac{\Delta\rho}{\rho}$ ning ortishiga ikkita sabab mavjud. Birinchidan, $T < \theta_D$ harorat oralig‘ida harakatchanlikning ortishi, ikkinchidan, birinchi zonadagi zaryad tashuvchilarning konsentatsiyasining kamayishi va mos ravishda umumiy harakatchanlikning kamayishi. $T > 150$ K harorat oralig‘ida $\frac{\Delta\rho}{\rho}$ ning kamayishi holatlari zichligining samarali massasining ortishi tufayli ikkinchi zona osti tashuvchilarning harakatchanligining pasayishi, panjaraning akustik tebranishlari bilan tarqalishi tufayli harakatchanlikning pasayishi bilan bog‘liq.



7-rasm. $Bi_2Te_3 + 0,04$ massa % Ni qotishma uchun zaryad tashuvchilarning harorat bog‘liqligi.

$\frac{\Delta\rho}{\rho}$ ning o‘zgarishi Xoll effekti va elektr o‘tkazuvchanligining bir vaqtning o‘zida aniqlashda hisoblangan harakatchanlik ma’lumotlari bilan tasdiqlanadi (7-rasm).

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, haqiqatdan ham $T < 150$ K harorat oralig‘ida $(R_x \cdot \sigma)$ qiymatining ortishi kuzatiladi, $T > 150$ K dan yuqorida esa ular kamayadi. Bi_2Te_3 va uning

asosidagi qattiq qotishmalarning bunday o‘zgarishi $(R_x \cdot \sigma)$ adabiyotlarda r^* sochilish parametrining o‘zgarishi bilan izohlangan.

n va p -tipli termoelektrik materiallarning $Bi - Sb$ va $Pb - Sb$ qotishmalarining ho‘llash va kommutatsiya metallarining tadqiq etish shuni ko‘rsatdiki, evtetik $Pb - Sb$ qotishma eng yaxshisi bo‘lib chiqdi (1-jadval).

Ma’lumki, qo‘rg‘oshin misda eriydi va amalda nikelda erimaydi. Qo‘rg‘oshinning keng harorat oralig‘ida ($-200 \div +250$)°C yuqori eruvchanligi, yarimo‘ktazgichlar va metallarga nisbatan kam kimyoviy faolligi, nisbatan yuqori erish nuqtasi ($+327$ °C), arzonligi va boshqa ba’zi xususiyatlari uni unga asoslangan evtetiklarni yaratish uchun istiqbolli materialga aylantiradi.

Bi, Pb va $Bi - Sb$ evtetik komponentlarining termoelement shohchalari va oqim o‘tkazuvchi shinalar materiallari bilan kimyoviy o‘zaro ta’sirining tabiatini aniqlash uchun quyidagi sxemalar bo‘yicha tajriba namunalari tayyorlandi:

1. $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3 + Bi - Sb + Cu$;


2. $Bi_2Te_{2,88}Se_{0,12} + Bi - Sb + Cu$;
3. $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3 + Pb - Sb + Cu$;
4. $Bi_2Te_{2,88}Se_{0,12} + Pb - Sb + Cu$.

1-jadval.

Bi, Pb va Bi – Sb, Pb – Sb evtektivlarning n va p-tipli termoelektrik materiallar hamda kommutatsion materiallar bilan o‘zaro ho‘llash burchaklari.

Asos materiali	Evtetik tarkibi, massa %		ho‘llash burchagi Θ , grad							
	Asosiy metall	Modifikator	280	300	320	350	280	300	320	360
n tip	100 – Pb	-	-	-	-	105	-	-	-	290
	100 – Bi	-	55	53	48	42	572	585	605	630
	96 – Bi	4 – Sb	56	54	40	38	580	585	618	635
	96 – Pb	4 – Sb	45	41	37	33	610	617	625	640
	89 – Pb	11 – Sb	32	29	28	25	715	717	725	732
p tip	100 – Pb	-	-	-	-	95	-	-	-	320
	100 – Bi	-	45	42	38	30	605	618	632	649
	96 – Bi	4 – Sb	43	41	38	32	608	620	643	650
	96 – Pb	4 – Sb	40	38	35	31	615	624	629	642
	89 – Pb	11 – Sb	31	28	25	29	722	743	750	780
Cu	96 – Bi	4 – Sb	38	35	30	30	957	1020	1080	1100
	96 – Pb	4 – Sb	38	32	29	25	950	980	1030	1091
	89 – Pb	11 – Sb	35	26	22	-	955	1010	-	-
Ni	96 – Bi	4 – Sb	37	31	26	25	930	890	1011	1040
	96 – Pb	4 – Sb	36	32	25	22	955	990	1030	1070
	89 – Pb	11 – Sb	29	26	21	17	965	1070	-	-

Metall-pripoy-yarimo‘ktazgich kontaktida diffuziya jarayonlarini faollashtirish uchun namunalar 100, 150, 500, 1000 soat davomida 200 °C haroratda izotermik sharoitda vakuumda toblandi. Tayyorlangan shliflarda mikrostrukturaviy tahlil o‘tkazildi va rentgenospektral tahlil yordamida elementlarning taqsimoti o‘rganildi va ularning zichligi bo‘yicha elektr qarshiligi o‘lchandi.



8-rasm. a) $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3 + BiSb + Cu$
b) $Bi_2Te_{2,88}Se_{0,12} + BiSb + Cu$
v) $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3 + PbSb + Cu$
(toblanishgacha)
(toblanishgacha)
(toblanish 200 °C, 150 soat)

